



BUXORO VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

2021- YIL YANVAR-DEKABR
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 20826,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 100,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 93,7 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishning – 9,8 % ga pasayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati





Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 707,7 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,4 % ini tashkil etdi.




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Oltingugutr, t.	1180,0	1817,0	637,0
Shag'al, t.	35711,0	32791,0	-2920,0



Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari, ming so'm	166206949,0	181292359,0	15085410,0

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar - dekabr

FHI,% da



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 19514,2 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 93,7% ini tashkil etdi.


2020-yil yanvar-dekabr

95,5 %

2021-yil yanvar-dekabr

93,7 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 1,7 % (1,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 52,7 % (57,3 %) va quyi texnologiyalisi – 45,5 % (40,7 %)ni tashkil etdi.



Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 40,0 % (2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 74,4 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 23,8 % (2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 116,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,5 % (2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 118,0 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 6,2 % (2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 129,5 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati
O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Dizel yoqilg‘isi



2019-y. 2020-y. 2021-y.

Avtomobil benzini



2019-y. 2020-y. 2021-y.

Mazut



2019-y. 2020-y. 2021-y.

O‘simlik yog‘i (tozalangan)



2019-y. 2020-y. 2021-y.

Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa




2019-y. 2020-y. 2021-y.

Yumshoq bug‘doy va spelta uni



2019-y. 2020-y. 2021-y.




2021- yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 874,8 ming tonna avtomobil benzini (2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 3,7 % ga o'sgan), 25,7 ming tonna kalava ip (19,3 % ga), 3299,1 ming litr aroq mahsulotlari (2,4 m) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Mazut, ming t.	118,0	82,7	-35,3
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	10977,0	9760,5	-1216,5
Paxta tolasi, t.	96999,1	99801,0	2801,9
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	90754,1	85442,0	-5312,1
Paxta chigiti, t.	147656,9	151824,0	4167,1
Yig'ma konstruksiyalar elementlari, t.	26472,0	30703,6	4231,6

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi esa 126,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,4 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 1,8 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 81,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 112,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 29,5 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1291,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Oziq-ovqat, ichimliklar mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 122,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 18,0 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 3649,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 106,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 181,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 14,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 116,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 16,8 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 4956,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yog'och va po'kak buyumlar, pohl va to'qish uchun materiallar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish


2020- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra mahsulotlarni ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 127,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 %, fizik hajm indeksi 126,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 258,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish

2020- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 100,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 % ni, fizik hajm indeksi 98,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 447,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2020- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 46,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 126,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 40,0 % ni, fizik hajm indeksi 74,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 8332,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish

2020- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish sanoatining chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 112,9 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni, fizik hajm indeksi 240,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 9,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 451,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,2 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,6 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	6,2	7,4	1,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	841,4	871,4	30,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 153,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	9846,9	17332,5	7485,6
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	498,5	490,1	-8,4

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 76,0 % ga oshganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 1,7 % ga pasayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8677,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 120,2% ni, uning jami sanoatdagi ulushi 41,7 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2020-yil
yanvar-dekabr

35,9%

2021-yil
yanvar-dekabr

37,4%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2020-yil
yanvar-dekabr

64,1%

2021-yil
yanvar-dekabr



62,6%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 4,1 % (2020- yil yanvar-dekabr oylarida 2,0 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahri to'g'ri kelib 20,4 % ni va Qorovulbozor tumaniga 18,9 % ni, G'ijduvon tumani 11,9 % ni hamda Jondor tumani 8,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (120,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Peshku(171,7 %), Kogon (165,2 %), Shofirkon (140,4 %), Jondor (138,7 %) hamda Romitan (128,5 %) tumanlarda qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahri to'g'ri kelib, 20,4 % shuningdek, Qorovulbozor tumaniga 18,9 %, G'ijduvon 11,9 % ni, Jondor 8,3 % tumanlari tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi



Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 29,4 % shuningdek, Buxoro shahri 20,2 %, G'ijduvon 12,2 % ni, Kogon tumani 6,1 % ni tashkil etdi.

3332,8 mlrd. so'm


2019- yil yanvar- dekabr

4296,6 mlrd. so'm


2020- yil yanvar- dekabr

5432,3 mlrd. so'm

2021- yil yanvar- dekabr



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi





o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, 20,8 % ni, shuningdek, Jondor tumani 14,3 % ni, G'ijduvon tumani esa 11,5 % ni tashkil etdi.



Buxoro viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumani to'g'ri kelib, 41,3 % ni, shuningdek, Buxoro shahriga 13,1 % ni, G'ijduvon tumani esa 8,0 % ni tashkil etdi.

Buxoro viloyati

2019- yil

14798,2 mlrd. so'm

2020- yil

17574,4 mlrd. so'm

2021- yil

20826,9 mlrd. so'm



2019- yil


110,5 %

2020- yil

101,5 %


2021- yil

100,1 %



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (458 431,7 ming so'm), Kogon shahrida (14 820,1 ming so'm) hamda Kogon tumani (13 916,4 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (10 615,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 4422,9 ming so'm bo'lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 87 423,8 ming so'mni, Kogon tumanida – 7 519,1 ming so'mni, Buxoro shahrida – 6 264,9 ming so'mni tashkil etdi.

Buxoro viloyati

2019- yil

2 781,4 ming so'm

2020- yil

3 462,6 ming so'm

2021- yil

4 422,9 ming so'm



2019- yil


104,3 %

2020- yil

107,4 %

2021- yil

118,6 %




o'sish sur'ati

ming. so'm

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4874 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1278 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 26,2 % i) Buxoro shahriga, 619 tasi (12,7 % i) G'ijduvon tumaniga, 374 tasi (7,7 % i) Kogon tumaniga, 371 tasi (7,6 % i) Buxoro tumaniga, 348 tasi (7,1 % i) Romitan tumaniga, 337 tasi (6,9 % i) Jondor tumaniga, 303 tasi (6,2 % i) Shofirkon tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan



yangi tashkil etilgan

faoliyat yuritayotgan

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 148 ta loyiha bo'yicha 2106,2 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 32,1 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2021- yil yanvar-dekabr oylarida 946 ta yangi ish o'rinlari yaratildi, o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 2,5 m ni tashkil etdi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari
(mlrd. so'm)

	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr
Loyihalar soni, birlik	48	148
Korxonalar soni, birlik	40	136
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	1405,3	2106,2
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSh dollar	3,8	32,1
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	380	946